“ALPOMISH” DOSTONIDAGI SHEVAGA XOS SOZLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Abdunabiyeva Charos
Talaba
Guliston davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada ozbek xalq epik merosining durdonasi “Alpomish’ dostoni lingvistik jihatdan qisman tahlili qilinadi. Ayniqsa dostonda faol qo‘llanilgan shevaga oid sozlarning xususiyatlari, ularning fonetik, morfologik va semantik jihatlari organiladi. Tadqiqot janubiy ozbek dostonchilik maktabiga mansub variant (Umir Safar hamda Avliyo Mardonaqul) asosida olib borilgan. Maqolada sheva unsurlarining baxshi tili, og‘zaki epik uslub va milliy til taraqqiyotidagi orni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Alpomish dostoni, baxshi tili, sheva, dialektizm, janubiy lahja, xalq tili, folklor leksikasi, qipchoq lahjasi.

Abstract: This article provides a partial linguistic analysis of the Uzbek national epic masterpiece *“Alpomish”*. Special attention is given to the dialectal words actively used in the epic, examining their phonetic, morphological, and semantic features. The study is based on the southern Uzbek epic school versions narrated by Umir Safar and Avliyo Mardonaqul. The article also explores the role of dialectal elements in the bard’s language, oral epic style, and the development of the national language.

Keywords: *Alpomish* epic, bard’s language, dialect, dialectism, southern dialect, folk language, folklore vocabulary, Kipchak dialect.

Аннотация: В данной статье представлен частичный лингвистический анализ шедевра узбекского народного эпоса - *«Алпомиш»*. Особое внимание уделено диалектным словам, активно использованным в эпосе, их фонетическим, морфологическим и семантическим особенностям. Исследование основано на вариантах южной узбекской эпической школы (Умир Сафар и Авлиё Мардонакул). В статье раскрывается роль диалектных элементов в языке бахши, устно-эпическом стиле и развитии национального языка.

Ключевые слова: эпос *«Алпомиш»*, язык бахши, диалект, диалектизм, южный диалект, народный язык, фольклорная лексика, кыпчакский диалект.

O‘zbek xalq ogzaki ijodi tarixida “Alpomish” dostonining o‘rni beqiyosdir. U xalqning epik tafakkuri, milliy o‘zligi va ma’naviy olami, xalq tilining badiiy ifodasidir. Bu doston o‘zbek xalqining til boyligini, tarixiy leksikasini va shevalar tizimini saqlab kelayotgan tirik yodgirlikdir. “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytimi, Mahmud Zarifov tomonidan yozib olingan varianti xalq dostonchilik maktablarining yuksak namunasi sifatida e’tirof etiladi. Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og‘zaki ijodi – folklor san’atida, doston va eposlarida ko‘rinib, ular millatning o‘ziga xos til xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, xalqning milliy qadriyatlari, an’analarini rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi.

“Alpomish” dostonining ilmiy va badiiy qiymati uning tili boyligi bilan belgilanadi. Bu boy leksika adabiy tilning boyishidagi asosiy manbalardan biri bo’lib, o‘zbek tili tarixiy shevalaridan biri – qipchoq dialektining lug‘at boyligini o‘zida to‘la saqlab kelmoqda. Dostonda qahramonlar xarakteri, jismoniy yetukligi yoki, nuqsonlarini ifodalashdagi xalqona tavsifni kuzatar ekanmiz, xalq tilining sifatlashlardagi til jilolariga qanchalar boy ekanligiga amin bo‘lamiz. Masalan,

Bodom bekach:
Qaydan kelding, Qultoyqul, qaydan kelding, yoy-yoy,
Ko‘k qayg‘aday qangqillab qo‘ydan kelding, yoy-yoy.
Qultoy:
Hovi sening, yengajon, ravishingga, yor-yor,
Zebodayin bu mayin dovushingga, yor-yor.
Duppa-durust odamni qarg‘a deysan, yor-yor,
Ko‘k qarg‘alar uya qo‘ysin kavushingga, yor-yor.
Bodom bekach:
Andiyama, Qultoyqul, mandiyama, yoy-yoy,
Sakkuch degan ko‘ppakday sandiyama, yoy-yoy.
Oq changalning tubiga chiyib keldim, yoy-yoy,
Ichib olsang, chuvchining qondiyama, yoy-yoy[1].

Aytishuvdagi qahramonlar nutqining o‘ziyoq, so‘zlayotgan shaxsning jismoniy nuqsonli (Bodom bekach) ekani, nuqsonidan orlanmasligi, o‘zgalarni pisand ilmasligini ko‘rsatish bilan birga, fe’lidagi g‘ayirlik, suhbatdoshini kamsitishga urinish, yoqtirmaslik, g‘ashlikni ham ifodalab turibdi.

Shuningdek,dostonda ma’nodosh sinonimlardan ham unumli foydalanilgan. Boybichaning Surxayl mastonga bergan javobida Hakimbekni bek, Alpomish, Qarchig‘ay, Qaysar, Shunqor, Zo‘rabor, Qo‘ng‘rot elining to‘rasi, Qo‘ng‘irotning bekzodi, bir yurtning vallamati kabi nomlar bilan sifatlaydi.

Qozonda qaynagan shirboz go‘sht emas,
To‘rda o‘tirgan qizning boshi bo‘sh emas.

Qizim domot bobosining uliga,
Mol bergani Boysin – Qo‘ng‘irot elida.
Xabar bersa, bek Alpomish kelmaymi,
Kelsa Qorajonday o‘g‘ling o‘lmaymi…
Qarchig‘ay qarg‘aga yetmik berami,
Qaysar kelsa alplar omon qolami?![2]

Shuningdek, dostonda bir qancha birliklar mavjud bo‘lib xalq tilining jilosini anglash imkoni bilan birga qofiyadoshlikni ham ta’minlaydi. Jumladan, olsan-a – olsang-chi, yursan-a – yursang-chi, bo‘lsan-a – bo‘lsangchi, bersan-a – bersang-chi kabi. Dostondagi olqishlar ham qipchoq lahjasi namunasi sifatida teologik tushunchalarni saqlab keladi.

Qayda borsang, Shohimardon yor bo‘lsin.
O‘nakimo, chilton jilovdor bo‘lsin.
Dushmanlaring ko‘rsa seni, zor bo‘lsin.
Sen borib, salomat kelgin, bek og‘a.
Men mungluqman, ko‘zda selob yoshimdi(r)[3].

Xalq dostonlari tilini qipchoq dialekti bilan qiyoslasak, ularning adabiy tilga munosabatini va adabiy tilni boyitishdagi ornini belgilashga harakat qilinadi. Bunda leksik-stilistik va frazeollgik jihatdan ulardagi yaqinlik muhim o‘rinni egallaydi. Dostondagi sozlarning deyarli barchasi talaffuzi, ma’nosi, hatto qollanilish chastotasi jihatdan qipchoq dialektiga mos kelishini tilshunos olimlarimiz ta’kidlab o‘tadi. “Alpomish” dostonining tili xalq tiliga yaqindir. Unda qollanilgan: *mustor boldi-zoriqdi, munkir kelmoq gunohkor bo‘lmoq, mo‘r-malax- chigirtka, munshi-kotib, teva-tuya, ul-o‘g‘il, chovlab- ko‘payib, shirxo‘ra- sut ichadigan,enmoq-quyiga tushmoq, qulotuz-boshliq, g‘azo-jang,g‘alt urmoq-suzmoq* kabi shevaga xos sozlar xalq tilidan yozib olingan bo‘lib, ular tilimizning boyligidir. “Alpomish” dostonining tili qipchoq lahjasiga mansub. Chunki, dostonni kuylagan baxshilar qipchoq vakillaridir. Buni dostonni o‘rganayotganda adabiy tildan farq qiladigan fonetik, leksik, grammatik jihatlarini uchratamiz. Masalan: *y* va *j* hodisasi*: jur, jiyaman, jilayman, chechinib, chirpindi, iyiq, bo‘rboy, so‘yroq, ezuv* kabi nomlanish va atashlarni uchratamiz.

Bundan tashqari qadimiy turkiy qatlamdagi so'zlar tarixiy ildizlarga ega: alp, biy, bek, yurt, urug, boychibor. Bu so‘zlar asarda tarixiy mifologik qatlamlarni birlashtiradi. O‘g‘zaki epik tildagi ifodalar baxshi ijrosidagi xalqqa xos “hu boybicha”, ”juvonmarg”, “Olloh yor”,”Qo‘ymay turtkilaydi”,”boshini yorib qonga qorib” kabi.

“Alpomish” dostoni bugungi kun o‘zbek tishunosligining rivojlanib, taraqqiy etishi uchun ham juda ko‘p ilmiy, dealektal ma’lumotlar bera oladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Alpomish” dostoni. I. 38-39 bet.
2. “Alpomish: dostoni. I.54- bet.
3. “Alpomish: dostoni. I.79- bet.
4. “Alpomish: dostoni. II. 276- bet.
5. “Alpomish: dostoni. I. 192- bet.